

NAMOZ

Namoz Islomning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Alloh taolo bandalariga farz qilib qo'yan. Namoz Alloh bergen hadsiz-hisobsiz ne'matlarga bandasining shukronasi hamdir. Namoz ibodati tufayli kishining Alloh nazdidagi darajasi yuksaladi. Namozxon oxirat hayotiga tayyorgarlik ko'rib boradi. Turli bahonalar bilan namoz o'qimay yurgan kishi Allohnинг buyrug'iga qarshi chiqqan bo'ladi. Bu esa, katta musibatdir.

Qur'oni karimda namoz o'qish amr etilgan ko'plab oyatlar bor (mazmunlari):

«Namozni mukammal ado etingiz, zakot beringiz va ruku qiluvchilar bilan birga ruku qilingiz» (Baqara, 43).

«Darhaqiqat, mo'minlar najot topdilar. Ular namozlarga (qo'rquv va umid bilan) **bo'yin eguvchi kishilardirlar. Ular** (barcha) **namozlarni** (vaqtida ado etib qazo bo'lishdan) **saqlaguvchi kishilardir»** (Mo'minlar, 12, 9).

«Albatta, namoz fahsh va yomonlikdan qaytarur! Albatta, Allohnинг zikri (barcha narsadan) **ulug'dir!»** (Ankabut, 45).

HADISLARDAN NAMUNALAR

* Payg'ambarimiz (s.a.v.) ashoblaridan so'radilar: «Birortangiz uyingizning oldidan oqib o'tadigan daryoda (yoki soyda) har kuni besh mahal yuvisangiz, badanimda kir qolibdi, deb aytasizmi?» Sahobalar: «Sira ham kir qolmaydi», deyishdi. Rasuli Akram: «Besh vaqt namoz ham shunga o'xshash bo'lib, Alloh taolo bu o'qilgan namozlar tufayli gunohlarni kechiradi».

* «Namoz jannatning kalitidir».

* «Namoz dinning ustunidir».

* «Namoz mo'minning me'rojidir».

NAMOZ O'QISH TARTIBI

Bir kunda besh vaqt (bomdod, peshin, asr, shom va xufton) namoz o'qish har bir musulmonga farzdir.

BOMDOD NAMOZI

Bomdod namozi ikki rakat sunnat, ikki rakat farz – jami to'rt rakatdan iborat. Bomdod namozining ikki rakat sunnati quyidagicha o'qiladi:

1. «Alloh rizoligi uchun qibla tomonga yuzlanib, bugungi bomdod namozining ikki rakat sunnatini o'qishni niyat qildim», deb ko'ngildan o'tkaziladi.



2. «Allohu akbar», deb iftitoh takbiri aytildi. Bu takbirda erkaklar qo'llar kaftini qiblaga qaratib, bosh barmoqlarining uchini quloqlarining yumshoq joyiga tekkizishadi. Ayollar qo'llarini yelka barobarida ko'taradilar.



3. Qo'llar bog'lanadi. Erkaklar o'ng qo'l kaftini chap qo'l ustiga qo'yishadi. O'ng qo'lning bosh va kichik barmoqlari bilan chap qo'l bilagini ushlashadi. Ayollar o'ng qo'lni chap qo'l us-tida tutib, qo'llarini ko'krakka qo'yadilar. Bu hol «qiyom» deyiladi. Qiyomda (tik turgan holda) sajda qilinadigan joyga qarab, navbati bilan, quyidagilar o'qiladi.



SANO DUOSI

Subh` anakall` ouhumma va bihamdika va tab` arokasmuka va ta` a'la jadduka va l`a il` aha g`oyruk.

Ma'nosi: «Allohim! Sening noming muborakdir. Shon-sharafing ulug'dir. Sendan o'zga iloh yo'qdir».

FOTIHA SURASI

A`` uzu bill` ahi minash shayt` onir roj` iym. Bismill` ahir rohm` anir roh` iym. Al hamdulill` ahi robbil `` alam` iyn. Ar-rohm` anir roh` iym. M` aliki yavmidd` iyn. Iyy` aka na'budu va iyy` aka nasta` iyn. Ihdinas sir` otol mustaq` iym. Sir` otollaz` iyna an'amta `alayhim g`oyril mag`z` ubi `alayhim valazz` ` oll` iyn.

عَوْذَ بِمَا لَهُ مِنْ أَذْنَانٍ شَيْطَانٍ أَلْرَجَ يَمْ

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

الْحَمْدُ لِلَّهِ رَبِّ الْعَالَمِينَ

الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

مَالِكِ يَوْمِ الدِّينِ

إِلَيْكَ نَعْبُدُ وَإِلَيْكَ نَسْتَعِينُ

اَهْدِنَا الصِّرَاطَ اَلْمُسْتَقِيمَ

صِرَاطُ الَّذِينَ أَنْعَمْتَ عَلَيْهِمْ غَيْرِ الْمَغْضُوبِ عَلَيْهِمْ وَلَا الضَّالِّينَ

“Fotiha” surasining qiroatini (MP3) ko` chirib olish uchun **shuni bosing**

Mazmuni: Allohning dargohidan quvilgan shayton yomonligidan Allohning panohiga qochaman. Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan (boshtagman). Hamd olamlar rabbi Allohgakim, (U) mehribon, rahmli va hisob-kitob kuni (Qiyomat)ning egasidir. Sengagina ibodat qilamiz va Sendangina yordam so'raymiz! Bizni shunday to'g'ri yo'lga boshtaginki, (U) Sen in'om (hidoyat) etganlarning (payg'ambarlar, siddiq va shahidlarning) yo'lidir, g'azabga uchragan (Muso qavmidan itoatsizlarining) va adashgan (Iso qavmining «Allohning farzandi bor» deydigan)larning emas!

Fotiha surasidan so'ng bir zam (qo'shimcha) sura o'qiladi.

Yangi o'rghanuvchilar quyidagi kichik suralardan birini zam qilishsa bo'ladi:

KAVSAR SURASI

Inn` a a'toyn` akal-kavsar. Fa solli lirobbika vanhar. Inna sh` ania'ka huval abtar.

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ
إِنَّا أَعْطَيْنَاكَ الْكَوْثَرَ
فَصَلِّ لِرَبِّكَ وَانْهَرْ
إِنْ شَانِئَكَ هُوَ الْأَبْتَرُ

“Kavsar” surasining qiroatini (MP3) ko` chirib olish uchun **shuni bosing**

Mazmuni: «(Ey Muhammad,) darhaqiqat, Biz Sizga Kavsarni* berdik. Bas, Rabbingiz uchun namoz o'qing va (tuya) so'yib qurbanlik qiling! Albatta, g'animingizning o'zi (barcha yaxshiliklardan) mahrumdir».

(Kavsar — *jannatdagi bir ajib daryo yoki hovuzning nomi. Uning suvi asaldan totli, qor va suvdan oq. Undan ichgan kishi abadiy chanqoqlik ko'rmaydi.*)

IXLOS SURASI

Qul huwall` ohu ahad. All` ohus-somad. Lam yal` id. Va lam ` yuvlad va lam yakullah` u kufuvan ahad.

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

قُلْ هُوَ اللَّهُ أَحَدٌ

الله الصَّمَدُ

لَمْ يَلِدْ وَلَمْ يُوَلَّدْ

وَلَمْ يَكُنْ لَهُ كُفُواً أَحَدٌ

"Ixlos" surasining qiroatini (MP3) ko`chirib olish uchun [**shuni bosing**](#)

Mazmuni: (Ey Muhammad,) ayting: «U — Alloh yagonadir. Alloh behojat, (lekin) hojatbarordir. U tug'magan va tug'ilmagan ham. Shuningdek, Unga teng biror zot yo'qdir».

FALAQ SURASI

Qul a'`uzu birobbil falaq. Min sharri m`a xolaq. Va min sharri g``osiqin iz`a vaqob. Va min sharrin-naff`as `ati fil `uqod. Va min sharri h`asidin iz`a hasad.

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

فُلْ أَعُوذُ بِرَبِّ الْفَلَقِ

مِنْ شَرِّ مَا خَلَقَ

وَمِنْ شَرِّ غَاسِقٍ إِذَا وَقَبَ

وَمِنْ شَرِّ النَّفَاثَاتِ فِي الْعُقَدِ

وَمِنْ شَرِّ حَاسِدٍ إِذَا حَسَدَ

"Falaq" surasining qiroatini (MP3) ko`chirib olish uchun [**shuni bosing**](#)

Ma'nosi: «(Ey Muhammad,) ayting: "Panoh tilab iltijo qilurman tong Parvardigoriga yaratgan narsasi yovuzligidan, tugunchaga dam uruvchi ayollar yovuzligidan hamda hasadchining hasadi yovuzligidan"».

AN-NOS SURASI

Qul a` uzu birrobin-n `asi malikin-n `asi il` ahin-n `asi min sharril vasv` asil xonn` as. Allaz` iy yuvasvisu f` iy sud` urin-n `asi minal jinnati van-n `as.

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

فُلْ أَعُوذُ بِرَبِّ النَّاسِ . 1.

مَلِكِ النَّاسِ . 2.

إِلَهِ النَّاسِ . 3.

مِنْ شَرِّ الْوَسْوَاسِ الْخَنَّاسِ . 4.

الَّذِي يُوَسْوِسُ فِي صُدُورِ النَّاسِ . 5.

مِنَ الْجِنَّةِ وَ النَّاسِ . 6.

"An-Nos" surasining qiroatini (MP3) ko` chirib olish uchun [shuni bosing](#)

Ma'nosi: «(Ey Muhammad,) ayting: "Panoh tilab iltijo qilurman odamlar Parvardigoriga, odamlar Podshohiga, odamlar Ilohiga yashirin vasvasachi (shayton) yovuzligidanki, (u) odamlarning dillariga vasvasa solur. (O'zi) jinlar va odamlardandir"».



4. Zam sura tugagach, «Allohu akbar», deb ruku qilinadi. Erkaklar tirsaklari va tizzalarini bukmasdan, barmoqlarini ochgan holda, tizzalarini mahkam changallab egiladilar. Ayollar erkaklarga nisbatan ozroq egiladilar. Tizzalarini bir oz bukadilar. Barmoqlarini jamlab tizzalarini tutadilar. Rukuda uch marta «Subhana robbiyal aziym» (Ey buyuk Robbim, Sen barcha nuqsonlardan poksan), deyiladi.



5. Rukudan «Sami'alohu liman hamidah» (Alloh Uni hamd etganylarni eshitguvchidir), deb qad ko'tariladi, bu holat «qavma» deyiladi.

Qavma holida: «Robbana lakal hamd» (Ey Robbimiz, har turli hamd-sanolar yolg'iz Sengadir), deyiladi.



6. «Allohu akbar» deb avvalo tizzalar, ke-yin qo'llar, so'ng peshona va burun yerga tekkizilib, sajda qilinadi. Sajda qi-linayotganda oyoq panjalari qibлага qaratiladi, erkaklarning tirsaklari yerga tegmaydi. Ayollar tirsaklarini yerga qo'yadilar. Sajdada uch marta: «Subhana robbiyal



a'la» (Ey ulug' Robbim, Sen butun nuqsonlardan poksan), deyiladi.



7. «Allohu akbar» deb sajdadan bosh ko'tariladi va tiz cho'kkан holda bir oz o'tiriladi, bu holat «jalsa» deyiladi. Jalsada qo'llar, barmoqlar o'z holicha tutilib, songa qo'yiladi. Barmoq uchlari tizza bilan teng bo'lishi lozim.

Erkaklar chap oyoqlari ustiga o'tiradilar. O'ng oyoq panjalari qibлага qaratiladi. Ayollar oyoqlarini o'ng tarafdan chiqarib o'tiradilar.



8. «Allohu akbar», deb ikkinchi marta sajda qilinadi. Sajdada uch marta: «Subhana robbiyal a'la», deyiladi. Shu bilan birinchi rakat tugaydi.

9. «Allohu akbar», deb qiyomga (tikka) turiladi.

10. Qiyomda «Bismillahir rohmanir rohiym»dan boshlab, Fotiha surasi, orqasidan bir zam sura o'qiladi.

11. «Allohu akbar», deb ruku qilinadi. Rukuda uch marta «Subhana robbiyal aziyim», deyiladi.

12. «Sami'allohu liman hamidah», deb tik turiladi, ketidan «Robbana lakal hamd», deyiladi.

13. «Allohu akbar», deb sajdaga boriladi. Sajdada uch marta «Subhana robbiyal a'la», deyiladi.

14. «Allohu akbar», deb sajdadan bosh ko'tariladi va bir oz o'tiriladi.

15. «Allohu akbar», deb ikkinchi bor sajda qilinadi. Sajdada uch marta: «Subhana robbiyal a'la», deyiladi.

16. «Allohu akbar», deb sajdadan bosh ko'tarilib qa'dada o'tiriladi va quyidagilar o'qiladi:

«ATTAHYYAT» DUOSI

Attahiyy` atu lill` ahi vas-solav` atu vattoyyib` at. Assal` amu `alayka ayyuhan-nabiyyu va rohmatull` ohi va barok` atuh. Assal` amu `alayn` a va `al` a ib` adillahis` olih` iyn. Ashhadu all` a il` aha illall` ohu va ashhadu anna Muhammadan `abduh` u va ros` uluh.

Mazmuni: Mol, badan, til bilan ado etiladigan butun ibodatlar Alloh uchundir. Ey Nabiy! Allohnинг rahmati va barakoti Sizga bo'lsin. Sizga va solih qullarga Allohnинг salomi bo'lsin. Iqrormanki, Allohdan o'zga iloh yo'q. Va yana iqrormanki, Muhammad, alayhissalom, Allohnинг quli va elchisidirlar.

SALOVOT

All` ohumma solli `al` a Muhammadiv-va `al` a `ali Muhammad. Kam` a sollayta `al` a Ibroh`ima va `al` a `ali Ibroh`im. Innaka ham` idum-maj` id.

All`ohumma b`arik `al`a Muhammadi-v-a `al`a `ali Muhammad. Kam`a b`arokta `al`a Ibroh`ima va `al`a `ali Ibroh`im. Innaka ham`idum-maj`id.


Mazmuni: Allohim, Ibrohim va uning oilasiga rahmat etganining kabi, Muhammad va ul zotning oilasiga rahmat ayla, Sen hamdu maqtovga loyiq va buyuk Zotsan.

Allohim, Ibrohim va uning oilasiga barakotingni ehson etganining kabi Muhammad va ul zotning oilasi ustiga ham barakotingni ehson ayla. Sen hamdu maqtovga loyiq va buyuk Zotsan.

DUO

Robban`a `atin`a fid-duny`a hasanatav-va fil`axiroti hasanatav-va qin`a az`aban-n`ar.

Mazmuni: «Ey Robbimiz, bizga bu dunyoda ham, oxiratda ham yaxshilikni bergin va bizni do`zax olovni azobidan saqlagin».



17. Avval o'ng, keyin chap yelkaga qarab: «Assalamu alaykum va rohmatulloh» deb salom berilib namozdan chiqiladi.

Shu bilan bomdod namozining ikki rakat sunnati tugaydi. Bomdod namozining ikki rakat farzi ham xuddi shu tartibda o'qiladi. Farqi — avvalo, erkaklar niyatdan oldin (boshqa farz namozlari oldidan ham) quyidagi iqomat takbirini aytishadi:



Allohu akbar, Allohu akbar,
Allohu akbar, Allohu akbar.
Ashhadu alla ilaha illalloh,
Ashhadu alla ilaha illalloh.
Ashhadu anna Muhammadar rosululloh,
Ashhadu anna Muhammadar rosululloh.
Hayya `alas-solah, hayya `alas-solah,
Hayya `alal-falah, hayya `alal-falah.
Qod qomatis-salah, qod qomatis-salah
Allohu akbar, Allohu akbar,
La ilaha illalloh.

Iqomat takbirining lafzlari azonnikiga o'xshaydi, farqi — bunisi tez aytildi. Bomdod namozining farziga quyidagicha niyat qilinadi: «Allah rizoligi uchun bomdod namozining ikki rakat farzini o'z vaqtida o'qishni niyat qildim». Qolgan qismi sunnat bilan bir xil davom etaveradi.

Foydali linklar:

[Men ham namoz o'qiyman. \(namoz va tahorat haqida ko'rsatuv \)](#)

[Quroni Karim ma'nolari tarjimasi \(Alouddin Mansur\) O'zbek tilida o'qing](#)

[Quroni Karimdan 33 ta DUO. Arab, English va O'zbek tillarida o'qing.](#)

[Quroni Karim tafsirini tinglang. \(Shayx Abduvali qori\)](#)

[Quroni Karim tilovoti. \(Abdussamad Abdulbosit\) Tinglang.](#)

Barchalarimizni ibodatlarimizni Olloh Taolo o'z dargohida qabul qilsin. Omin.